

**BUYUK MUTAFAKKIRLARIMIZNING ILMIY MEROSSI YOSHLAR
TARBIYASIDA MUHIM OMIL**

J.Yakobjanov
O'z MPU dotsenti, PhD

Vatanimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan so'ng ko'plab sohalarda yangilanishlar amalga oshirildi. Jumladan, ilmiy meroslarimizni yosh avlodga yetkazish ham kun tartibiga qo'yildi. O'zlikni anglash, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviy hayotni yuksaltirishda hukumatimiz tomonidan uzoqni mo'ljallab ishlab chiqilgan maxsus dasturlar bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buyuk ajdodlarimizning hayoti va bebaho merosini o'rganish, qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi.

O'tmish tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimda Turon, o'rta asrlarda Turkiston, Movarounnahr deb yuritilgan bizning zamin azaldan sivilazatsiya markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, IX-XII asrlardagi madaniy yuksalish Sharq uyg'onish davri - Sharq renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.

O'rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida xalifa Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid zamonida (813-833) Bog'dorra tashkil etilgan "Baytul hikma" alohida o'rin tutgan. "Baytul hikma" merosini o'rganganda Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (786-850) nomi birinchilar qatorida tilga olinadi. Xalifalik akademiyasining mudiri bo'lgan al-Xorazmiy o'nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini birinchilardan bo'lib asoslab berdi va amaliyotga tadbiq etdi. Bu esa matematika va astronomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi.

Bog'dod akademiyasining yana bir movarounnaxrlik namoyandasasi Ahmad Farg'oniy (797-865) o'zining "Astronomiya asoslari" deb nomlangan fundamental asarda olamning tuzilishi, yerning o'lchovi haqidagi dastlabki ma'lumotlar, sayyoramizning sharsimon ko'rinishga ega ekanligi xususidagi dalillari keyinchalik buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Yillar o'tishi bilan yana ilm-fan va madaniyat o'chog'i Bog'doddan Movarounnahr zaminiga ko'chdi. 1004 yilda xorazmshoh Ali ibn Ma'mun tomonidan Gurganchda akademiya tashkil etiladi. Xorazm "Ma'mun akademiyasi"ning asosini Abu Nasr ibn Iroq (X a.-1034), Abulhayr ibn Hammor (991-1048), Abu Sahl Masihiy (970-1011), Abu Rayxon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037) kabi allomalar tashkil etishgan¹⁵. Ma'mun akademiyasida to'plangan olimlar ro'yxati bizgacha yetib kelmagan. Lekin tarixchi Abu Mansur as-Saolibiy (961-1038) ning yozishicha, Gurganchda to'plangan faqat arabiynavis adiblarning o'zi 200 ga yaqin bo'lgan.

Xorazmnинг qadimgi poytaxti Gurganch, hozirda Qo'hna Urganch deb nomlanib, u bugungi Xiva shahridan taxminan 100 km. masofada joylashgan. Mahalliy xalq Ko'hna

¹⁵ Азимий Саъдуллаев. Хоразм Маъмун Академияси. – Хива. 2000. 4-6.

Urganchni ko‘proq “360” deb ataydi. Rivoyatlariga qaraganda bu shaharda o‘tmishda 360 ta shayx, mutafakkir va olimu-fuzalo o‘tgan ekan. Mazkur 360 ta alloma aslida “Ma’mun akademiyasi” dovrug‘ining halq xotirasida rivoyat shaklidagi ko‘rinishidir.

Xorazm “Ma’mun akademiyasi”da faoliyat yuritgan olimlar sardori shubhasiz Abu Rayxon Beruniy (973-1048) edi. Beruniy qomusiy olim sifatida shu darajada ko‘p ijod qilganki, u yozgan asarlar ro‘yxatining o‘ziyoq, agar mayda harflar bilan yozilsa, 60 varaqlik kitobcha hosil bo‘lar ekan! Beruniy ilmiy ishlaridan bizgacha faqat 31 tasi yetib kelgan. U geodeziya faniga asos soldi. Minerallar tasnifi va ularning paydo bo‘lishi nazariyasini ishlab chiqdi. Amerikalik tarixchi Sarton shuning uchun ham XI asrni “Beruniy asri” deb atagan edi. Beruniy siymosiga mukammal ta’rifni yirik nemis sharqshunos olimi Karl Eduard Zaxau (1845-1930) bergen: “Dunyoda tog‘lar ko‘p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho‘qqi borki, bu cho‘qqini insoniyat hech qachon zabit eta olmaydi. Bu - Beruniydir”.

Ma’lumki, 1017 yilda Mahmud G‘aznaviy (997-1030) Xorazmni bosib olgach, “Ma’mun akademiyasi” olimlarini o‘z poytaxti G‘aznaga olib ketadi. Beruniy ham o‘zining ilmiy faoliyatini G‘aznada davom ettiradi. Ammo buxorolik Abu Ali ibn Sino (980-1037) Mahmud G‘aznaviy amriga bo‘ysunmay uning g‘animiga aylanadi va bir necha yil davomida hukmdordan olsida eronu-xurosonda qochqinda yashashga majbur bo‘ladi. Hayotining ko‘p yillari tahlikada o‘tgan olim 450 dan ortiq asar yaratdi. Tadqiqotchilarining e’tirof etishicha, Frensis Bekon, g‘arb uyg‘onish davrining buyuk namoyandalari Leonardo da Vinci, Mikelanjelo va boshqa olimlar uning asarlarini o‘qib hayratga tushganlar.

Yurtimizdan chiqqan mutafakkir-olimlarning ilmiy merosi haqiqatdan ham olamshumul: Arab tili grammatikasining asoschisi sifatida tan olingan Maxmud Zamaxshariy (1075-1144) tarixda birinchi ko‘p tilli lug‘at - arabcha-forscha-turkiy lug‘atni tuzgan edi. “Sharq Aristoteli” (“Ikkinchi muallim”) nomi bilan mashxur Abu Nasr Forobiy (873-950) jahon tarixida birinchi bo‘lib nota yaratgan. U ixtiro qilgan cholq‘u asbobi - qonun hamon sozandalarimiz qo‘lidan tushmaydi. Beruniy zamondoshi, Foroblik Javhariy (940-1008) o‘zi yasagan qanotlar bilan uchish mumkinligini Leonardo da Vinchidan 500 yil oldin tajribada sinab ko‘rgan¹⁶.

Bizning yurtimizdan nafaqat aniq fanlar balki islom huquqshunosligi (fiqx), mantiq, tasavvuf va kalom ilmining darg‘alari yetishib chiqdi. Imom al-Buxoriy (810-870), imom at-Termizi (824-894), Motirudiy (870-944), Marg‘iloniy (-1197), Abduxoliq G‘ijduvoniy (1103-1179), Bahouddin Naqshbandiy (1318-1389) kabi allomalarimizning ilohiyot ilmidagi merosi butun dunyo ilm ahlining “Islom daraxti Makka va Madinada ko‘kardiyu, lekin Movarounnahrda meva berdi” degan e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Darhaqiqat atoqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytnatovning “Qadim Gretsiya Yevropa sivilizatsiyasi o‘chog‘i sifatida qanday o‘rin tutgan bo‘lsa, o‘zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o‘lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o‘rin egallagan” degan so‘zlarida katta ma’no mujassam.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi. Nega aynan Movarounnahrdan chiqqan olimlar Bog‘dod Akademiyasida yuksak sharaf va mavqega sazovor bo‘lganlar? Nega butun bir XI asrni g‘arb olimlari “Beruniy asri” deya e’tirof etganlar? Nega dunyoning turli nuqtalarida masalan, Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug‘bekka, Yaponiya, Rossiya va

¹⁶ А.Иброҳимов. Бизким ўзбеклар . . . – Т., “Шарқ”. 2011. 62, 425-бетлар.

Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg‘oniy kabi vatandoshlarimizga haykallar o‘rnatalgan? Chunki, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta’kidlaganlaridek, jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o‘z-o‘zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an‘analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma’naviy muhit mayjud bo‘lmog‘i kerak¹⁷. Darhaqiqat Vatanimiz azaldan buyuk allomalarini, mard va jasur Vatan himoyachilarini, mashxur lashkarboshi va buyuk davlat arboblarini yetishtirib bergen muqaddas yurt.

Bugungi globalashuv davrida, axborot oqimlari o‘ta faollashgan zamonda barkamol avlod tarbiyasi, yoshlari ongida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga xurmat tuyg‘usini shakllantirish va uni rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb masalalardan biridir. Globallashuv zamonida hech bir jamiyat uzoq vaqt tashqi olamdan yopiq xolda yashay olmaydi. Agar shunday xolat ushlab turilgan taqdirda u har tomonlama qoloq va kuchsiz bo‘lib qoladi. Shunday ekan bugungi kunda xar bir ziyoli, qolaversa millat kelajagi va yurt taqdirini o‘zining taqdiri bilan bog‘liq ko‘rvuchi har bir inson yosh avlod tarbiyasiga loqayd bo‘lmasligi lozim. Zamoniviy yoshlari 20-30 yil oldingi yoshlardan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy fanlarni o‘qitish jarayonida ularning qalbiga siyqasi chiqqan eski ta’lim-tarbiya usullari vositali orqali yondashuv har doim ham kutilgan natija bermaydi. Bugungi yoshlarning qiziqishlari doirasi juda keng. Barkamol avlod tarbiyasini samarali amalga oshirishda esa bizda ma’naviy meros yetarli. Bu boy merosdan Vatanimiz ravnaqi yo‘lida oqilona va samarali foydalanish sizu bizning vazifamiz va burchimizdir. Zero Vatanga, millatga muhabbat tuyg‘usi eng muqaddas, eng mo‘tabar tuyg‘udir.

¹⁷ И.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., “Маънавият”. 2008. 5-6 6.